

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7-16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжоновна Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилатхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (НСV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Sobirova Feruza Maxamatismayilovna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: sobirovaferuza02@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida darsni rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Darsni samarali rejalashtirishning kasbiy kompetensiyadagi ahamiyati, zamonaviy pedagogik metodlar va UDL (Universal Design for Learning) yondashuvi asosida yuzaga keladigan qiyinchiliklar o'rganilgan hamda ularni bartaraf etish yo'llari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: darsni rejalashtirish, kasbiy kompetensiya, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, metodik tayyorgarlik, UDL yondashuvi.

PROBLEMS OF FORMING LESSON PLANNING SKILLS IN FUTURE ENGLISH TEACHERS

Sobirova Feruza Makhamatismayilovna

PhD student at Namangan State University

Annotation This article scientifically and theoretically analyzes the pressing problems in developing lesson planning skills among prospective English language teachers. It examines the significance of effective lesson planning in professional competence, the challenges arising from modern pedagogical methods and the Universal Design for Learning (UDL) approach, and proposes solutions for their resolution.

Keywords: lesson planning, professional competence, pre-service English language teacher, methodological preparation, Universal Design for Learning (UDL) approach.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i2/n61>

KIRISH

XXI asr ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan ustuvor vazifalardan biri – o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni mustaqil o'rganishga undash va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu jarayonda zamonaviy pedagogning o'рни beqiyos bo'lib, ayniqsa, chet tili o'qituvchisidan yuqori darajadagi kasbiy mahorat va ilmiy-metodik bilimlarni talab etadi. Jumladan, ingliz tili o'qituvchisi dars samaradorligini ta'minlashda darsni to'g'ri va puxta rejalashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, xalqaro tajriba, jumladan, Kembrij universiteti tomonidan ishlab chiqilgan Celta dasturi kabi zamonaviy kurslar ham o'qituvchidan dars rejalarini mukammal tuzishni taqozo etadi. Biroq, ta'lim muassasalarida, xususan, oliy ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida darsni rejalashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda qator muammolar mavjud. Ularni hal etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida darsni rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: darsni

rejalashtirishning nazariy asoslarini o'rganish; amaldagi ta'lim dasturlarining bu boradagi kamchiliklarini tahlil qilish; bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar va kuzatuvlar asosida amaliy muammolarni aniqlash; xalqaro tajribalarni (masalan, UDL – Universal Design for Learning yondashuvi) o'rganish va ularni mahalliy sharoitga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish.

Darsni rejalashtirish muammosi pedagogika fanida uzoq yillardan beri muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. O'tmishda Y.A. Komenskiy, I.G. Pestalotsi kabi olimlar dars maqsadini aniq belgilash va uning bosqichlarini izchil tashkil etish zarurligini ta'kidlaganlar. XX asrda esa M.N. Skatkin, I.Ya. Lerner, V.V. Davidov kabi rus pedagog-olimlar dars strukturasi, didaktik maqsad va mazmun o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tadqiq etganlar. O'zbekistonlik pedagog olimlar, jumladan, M. Ochilov, N.N. Azizxodjayeva kabi tadqiqotchilar ham darsning zamonaviy talablar asosida loyihalashtirilishi, uning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Dars samaradorligini oshirish, xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tili darslarini o'qitishga doir ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, J.Jalolov, [1; B.432.]. T. Sattarov,[2; B.191.]. S.Saydaliyev,[3; B.238.]. U.Xoshimov, I.Yoqubov, L.Ahmedova [4; B.159.]. chet tili o'qitish metodikasi bo'yicha, H.T.Hamraqulov, D.H.Mamatov,[5; B.16.]. S.Irgasheva, Y. Abduraimova, K.Alimova, S.Nuritdinova, S.Khan, M.Ogay, N.Begibaeva, N.Rayimova, D.Mamajonova[6; B.148.]. ingliz tili darslarini rejalashtirish va uning ta'limdagi ahamiyati borasida chet tili darslarini rejalashtirish, va uning ta'limdagi ahamiyati borasida, D.L.Chiesa, U.Azizov, S.Khan, K.Nazmutdinova,[7; B.164.]. U.Jabbarov,[8;B.32.]. D.Qarshiyeva,[9; B.30.] esa bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy muloqot va kasbiy mahoratini shakllantirish va ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmasini takomillashtirish xususida tadqiqot olib borganlar. Mazkur tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilarning dars rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, hozirgacha olib borilgan tadqiqot ishlarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining darsni rejalash jarayonidagi uchraydigan turli qiyinchiliklari va ularda bu ko'nikmani takomillashtirish muammolari maxsus tadqiq etilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Ayniqsa, yangi pedagogik texnologiyalar va Ta'lim uchun Universal dizayn (UDL) yondashuvi kabi innovatsion usullarni qo'llash nuqtai nazaridan chuqur o'rganish zarurati dolzarbligini saqlamoqda. Hozirgi kunda chet tilini o'qitish metodikasida integrativ yondashuvlar, STEAM ta'limi elementlari va har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga oladigan Universal Ta'lim Dizayn tamoyillari keng qo'llanilmoqda. Bu esa bo'lajak o'qituvchidan dars konspektini faqatgina an'anaviy tartibda emas, balki innovatsion g'oyalar va moslashuvchanlikni hisobga olgan holda tuzishni talab etadi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot jarayonida adabiyotlar tahlili, so'rovnomalar, kuzatuvlar va eksperimental pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Oliy ta'lim muassasalarining chet tillari fakulteti talabalari (bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari) o'rtasida ularning dars rejalashtirish ko'nikmalariga oid bilimlari va amaliy tajribalari o'rganildi. Shuningdek, ularning malaka amaliyoti davomida tuzgan dars konspektlari tahlil qilindi hamda ilg'or xorijiy ta'lim tajribasi o'rganildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida darsni rejalashtirish bo'yicha nazariy bilimlar mavjud bo'lsada, ularni amaliyotda samarali qo'llashda qator qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Asosiy muammolar quyidagilar:

1. Dars maqsadini aniqlashdagi noaniqliklar: Ko'pgina talabalar dars maqsadini faqatgina "yangi mavzuni tushuntirish" yoki "grammatik qoidani o'rgatish" kabi umumiy iboralar bilan belgilaydi. Amaliyotda esa ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni aniq, o'lchanadigan va erishish mumkin bo'lgan tarzda shakllantirishda qiynaladilar. Masalan, yangi so'zlarni yodlash o'rniga, nutqiy faoliyatda minimal beshta yangi lug'at birligini kontekstda qo'llay olish kabi aniqroq maqsadlarni belgilash lozim.

2. O'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olmaslik: Dars rejasini tuzishda o'quvchilarning yoshiga, til saviyasiga, qiziqishlariga va o'rganish uslublariga mos materiallar tanlash, differensial yondashuvni qo'llashda kamchiliklar kuzatiladi. Talabalar ko'pincha darslikdagi materiallarga qat'iy amal qilib, individual farqlarni e'tiborsiz qoldirishadi. Universallashtirilgan ta'lim dizayni (UDL) yondashuvi aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan bo'lib, o'qitish jarayonini har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirishni ko'zda tutadi.[10; B.35.]. UDL tamoyillari bo'yicha o'quv materiallari, topshiriqlar va baholash usullarini tanlashda bir nechta variantni taklif etish, o'quvchilarga o'rganish usullarini tanlash erkinligini berish muhimdir. Masalan, Writing an email mavzusidagi darsda, ba'zi o'quvchilar model matnni tahlil qilish orqali o'rgansa, boshqalar o'zining shaxsiy tajribasi asosida yozishni afzal ko'rishi mumkin.

3. Faol o'qitish metodlaridan samarali foydalana olmaslik: An'anaviy leksiya va savol-javob usullaridan chetga chiqib, interfaol mashg'ulotlar, loyiha ishlari, munozaralar, rolli o'yinlar kabi faol o'qitish metodlarini dars rejasiga kiritishda va ularni izchil amalga oshirishda metodik bilim va ko'nikmalar yetishmasligi seziladi. Talabalar ko'pincha nazariy ma'lumotga ega bo'lsada, ularni amaliyotda qanday tatbiq etishni bilmaydilar. Masalan, "Think-Pair-Share" metodi o'quvchilarni faollashtirish uchun juda yaxshi, ammo uni darsning qaysi bosqichiga, qanday tarzda integratsiya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalar sust.

4. Dars vaqtini samarali taqsimlashdagi qiyinchiliklar: Darsning har bir bosqichiga ajratiladigan vaqtni to'g'ri hisoblash, o'quvchilarning diqqatini saqlash va berilgan topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarishni ta'minlash bo'yicha tajribaning yetishmasligi. O'qituvchi ba'zan bir bosqichga uzoq qolib ketadi yoki aksincha, muhim bosqichni qisqa vaqtda yakunlashga majbur bo'ladi.

5. Baholash tizimini dars rejasiga integratsiya qilishdagi muammolar: Formativ va summativ baholash usullarini darsning maqsadi va mazmuniga mos ravishda rejalashtirish, o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini obyektiv baholash mezonlarini ishlab chiqishda qiynalishadi. Masalan, og'zaki nutq darsida nutq malakasini baholashda talaffuz, grammatika, leksika va muloqot samaradorligi kabi aniq mezonlarni qo'llashga amaliy yondashuv yetishmaydi.

Bu muammolarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- oliy ta'lim muassasalarida dars rejalashtirishga oid nazariy ma'lumotlarning yetarli darajada berilmasligi yoki amaliy mashg'ulotlarga ajratiladigan soatlarning kamligi.

- amaliyotga yo'naltirilgan seminar va treninglarning yetishmasligi.

- malaka amaliyoti davomida tajribali metodist-o'qituvchilar tomonidan yetarli darajada nazorat va metodik yordamning ta'minlanmasligi zamonaviy xorijiy tajribalarni, jumladan, UDL, PBL (Project-Based Learning), CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi yondashuvlarni o'quv dasturlariga to'liq integratsiya qilinmaganligi.

XULOSA

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida darsni rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar dars maqsadini aniq belgilash, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, faol o'qitish metodlaridan samarali foydalana bilish, dars vaqtini to'g'ri taqsimlash hamda baholash tizimini dars rejasiga integratsiya qilishda jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar. Bu muammolar metodik tayyorgarlikning nazariy qismining amaliyot bilan uzviylikining yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarning o'quv jarayoniga to'liq tatbiq etilmaganligi bilan bog'liqdir. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Oliy ta'lim o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish: "Chet tilini o'qitish metodikasi" va "Pedagogik texnologiyalar" fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar orasidagi mutanosiblikni ta'minlash, amaliyotga yo'naltirilgan seminar va treninglar sonini oshirish lozim.

2. Ta'lim uchun Universal dizayn (UDL) tamoyillarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish: Dars rejasi tuzish bo'yicha o'quv kurslariga UDL tamoyillarini kiritish, talabalarga har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashuvchan dars rejalarini tuzishni o'rgatish zarur. Bu jarayonni modulli dasturlar va keys-stadi usullari orqali amalga oshirish mumkin.

3. Interfaol o'qitish metodlarini amaliyotga joriy etish: Talabalarga loyiha asosida o'qitish (PBL), muammoli ta'lim, CLIL, rolli o'yinlar, munozaralar kabi faol metodlarni dars rejalariga samarali kiritish va ularni o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikmalar berish.

4. Baholash mexanizmlarini takomillashtirish: Formativ va summativ baholashning zamonaviy usullarini, jumladan, rubrikalar, portfoliolar, o'z-o'zini baholash kabi usullarni dars rejasiga kiritish va ularni amalda qo'llashga o'rgatish.

5. Malaka amaliyotini kuchaytirish: Malaka amaliyoti davrida har bir talabaga individual metodik rahbarlikni kuchaytirish, tajribali o'qituvchilar tomonidan master-klasslar va ochiq darslar tashkil etish, amaliyotchilarning darslarini tahlil qilish va ularga fikr-mulohazalar berish tizimini takomillashtirish.

Kelgusidagi tadqiqotlar UDL tamoyillari asosida chet tili darslarini rejalashtirish bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish, raqamli resurslar va texnologiyalardan foydalangan holda dars rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali yo'llarini izlash hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini baholash mezonlarini ishlab chiqishga bag'ishlanishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Jalolov J.J Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri.-Toshkent.: -2012.-432 b.
2. Xoshimov, U., Yoqubov, I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003. – 223 b.
3. Irgasheva S., Abduraimova Ya., Alimova K., Nuritdinova S., Khan S., Ogay M., Begibaeva N., Mamajonova D. Lesson Planning & Management. Trainer's Guidebook. – T.: Uzbekistan Scientific-Practical Innovation Center at UzSWLU, 2021. – 191 b.
4. Sattorov T. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida) / T. Sattorov. — Tashkent : TDYU, 2003. — 191 s.

5. Saydaliev S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar / S. Saydaliev. — Namangan : Namangan nashriyoti, 2004. — 238 s.
6. Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологии и профессиональной подготовке студентов УзГУМЯ.-Т.,2009.-159 ст.
7. Khan S., Nazmutdinova K., Chiesa D.L. *From Syllabus Design to Lesson Planning // Reconceptualizing Language Teaching: an in-service teacher education course in Uzbekistan* / David L. Chiesa, Ulugbek Azizov, Svetlana Khan, Klara Nazmutdinova [et al.]. — Tashkent : Baktria Press, 2019. — 205 p.
8. Alimov Sh.S., Moydinova Sh.I. Comparative Methodology in Tables. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 156 b.
9. Jabbarov U.A. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini Angliya pedagogik tajribasi asosida takomillashtirish. Avtoref. Dis.PhD.– Toshkent., –2017. -30 b.
10. Meyer, A., & Rose, D. H. Universal Design for Learning: Principles, Framework, and Practice (Third Edition). CAST Professional Publishing.-2025

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.